

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

Filologiya va ijtimoiy fanlar yo'nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Energetika sohasidagi barcha yo'nalishlarni qamrab olgan atamalar izohli lug'ati va elektron platformasini ishlab chiqish va ishga tushirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Kutilayotgan natijalar: - energetika sohasidagi hujjatlar, standartlar, loyihalar va texnik hujjatlar yagona va aniq atamalar asosida tayyorlanadi; - tushunmovchilik va noto'g'ri talqinlarning oldi olinadi, ayniqsa xalqaro loyihalarda; - qonunchilik, texnik reglamentlar va standartlar bir xil tushunchalar asosida ishlab chiqiladi va muvofiqlashtiriladi; - investitsiya loyihalarida, xorijiy texnik hujjatlarda atamalarni tarjima qilish osonlashadi; - ISO, IEC va GOST kabi xalqaro va mintaqaviy standartlari tizimlari bilan uyg'unlik ta'minlanadi; - til to'siqlari kamayadi – platforma rus, ingliz va o'zbek tillarida bo'ladi; - energetika tizimidagi texnik xodimlar, muhandislar va mutaxassislar o'rtasida yagona tushunchalar bazasi shakllanadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari Energetika vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Energetika vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma'lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Energetika vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.